



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TO'LOV BALANSI, XALQARO INVESTITSIYAVIY MAVQEI VA TASHQI QARZI



Bu qanday
nashr?

Ushbu nashr 2025-yil 9 oyi uchun O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olib, Xalqaro valyuta jamg'armasining "To'lov balansi va xalqaro investitsiyaviy mavqe bo'yicha qo'llanmasi"ning oltinchi nashriga (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) hamda "Tashqi qarz statistikasi bo'yicha qo'llanma"ga (2013-y.) muvofiq tayyorlangan.

Ma'lumotlar qaysi
sanaga dolzarb?

Ushbu nashrda keltirilgan statistik ma'lumotlar 2025-yil 30-dekabr holatiga dolzarb hisoblanadi.

Ma'lumotlarni
qayerdan olish
mumkin?

To'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha tahliliy va standart ko'rinishdagi statistik jadvallar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining <http://www.cbu.uz/> va XVJning <http://data.imf.org/> veb-saytlari orqali taqdim qilinmoqda.

Nashrga taalluqli
savol va takliflar
bo'yicha qanday
murojaat qilish
mumkin?

O.O. Tojiddinov

*Valyutani tartibga solish va to'lov balansi departamenti
direktori*

(+998) 71 212-60-38

o.tojiddinov@cbu.uz

R.M. Mirzaaxmedov

*Valyutani tartibga solish va to'lov balansi departamenti
direktori o'rinbosari - To'lov balansi boshqarmasi boshlig'i*

(+998) 71 212-60-99

r.mirzaahmedov@cbu.uz

Sh.X. Xayitboyev

To'lov balansi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

(+998) 71 212-60-42

sh.khayitboev@cbu.uz

Shuningdek, savollar va takliflar qo'shimcha ravishda val@cbu.uz elektron pochta manziliga yuborilishi mumkin.

QISQACHA SHARH

2025-yil boshidan O'zbekistonning tashqi sektorida kuzatilgan ijobiy tendensiyalar, xususan eksportning importga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi hamda mamlakatga xalqaro pul o'tkazmalari hajmining sezilarli darajada oshishi jarayonlari III chorak davomida ham saqlanib qoldi. Natijada, 9 oy yakuni bilan **joriy operatsiyalar hisobi 207,3 mln dollar** manfiy saldo bilan shakllandi (2024-yilning 9 oyida 3,1 mlrd doll).


Mazkur davrda xalqaro bozorlarda xomashyo narxlarining o'zgarishi¹ hamda norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining ko'payishi eksport ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Jami **eksport** hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **32,8 foizga** o'sib, **26,1 mlrd** dollarni tashkil qildi.

Mamlakatda investitsiyaviy faollik va ichki iste'mol talabi yuqori darajada saqlanib qolishi sharoitida xorijdan mashina va uskunalar, kimyoviy, maishiy va oziq-ovqat tovarlari hamda boshqa xomashyolar keltirilishi sababli jami **import** hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **15,4 foizga** o'sib, **36,7 mlrd** dollarga yetdi.

Natijada, 2025-yilning 9 oyida **savdo balansining** manfiy saldosi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,6 foizga kamayib, **10,6 mlrd** dollarni tashkil qildi.

Joriy operatsiyalar hisobi komponentlari

YalMga nisbatan foizda



¹ Jahon bankining xomashyo tovarlari narxlariga oid ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar-sentyabr oylarida oltinning o'rtacha narxi o'tgan yilning mos davridagi o'rtacha narxga nisbatan 40 foizga, kumush narxi 29 foizga hamda mis narxi 5 foizga o'sgan.

Joriy yilning 9 oyida O'zbekistonga kelib tushgan xalqaro pul o'tkazmalar hajmining o'sishi **birlamchi** va **ikkilamchi daromadlar** balansi ijobiy saldo (*mos ravishda 624,9 mln doll va 9,8 mlrd doll*) bilan shakllanishiga sabab bo'ldi.

Joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi moliyaviy hisob bo'yicha kapital tushumlar, xususan, to'g'ridan-to'g'ri, portfel investitsiyalar va boshqa mablag'lar jalb qilinishi hisobiga moliyalashtirildi.

Jumladan, 2025-yilning 9 oyi davomida mamlakatga **to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof kiritilishi**² o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 barobarga o'sib, 2,9 mlrd dollarga teng bo'ldi.


Portfel investitsiyalarning sof jalb qilinishi asosan xalqaro obligatsiyalar bilan bog'liq operatsiyalar hisobiga o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 barobarga oshib, 3,8 mlrd dollarni tashkil qildi.

Yuqoridagi tarkibiy omillar hisobiga joriy yilning 9 oyi yakuni bo'yicha **moliyaviy hisob** manfiy saldosi **955,8 mln** dollarni tashkil etdi.

2025-yilning 9 oyida **xalqaro zaxira aktivlarining** xorijiy valyutadagi qismi 1,5 mlrd dollarga ko'payishi kuzatildi. Shuningdek, oltin jahon narxining yuqori sur'atlarda o'sishi natijasida xalqaro zaxiralar qoldig'i joriy yil boshiga nisbatan qariyb 13,8 mlrd dollarga ko'payib, 2025-yilning 1-oktyabr holatiga qariyb **55 mlrd** dollarni tashkil qildi.

Moliyaviy hisob komponentlari

YalMga nisbatan



²To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha ma'lumotlar Xalqaro valyuta jamg'armasining qo'llanmasiga (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) muvofiq sof hajmlarda (investitsiya kiritilishi va repatriatsiyasi o'rtasidagi saldo) aks ettiriladi.

To'lov balansida aks etgan amaliyotlar va boshqa o'zgarishlar ta'sirida O'zbekistonning sof xalqaro investitsiyaviy mavqei joriy yil boshiga nisbatan **1,6 barobarga** mustahkamlanib, 2025-yil 1-oktyabr holatiga **21,4 mlrd** dollarga yetdi.

Bunda, rezidentlarning chet el valyutasidagi aktivlari hajmi yil boshiga nisbatan 21,9 mlrd dollarga (23 foiz) hamda tashqi majburiyatlari hajmi 13,7 mlrd dollarga (16 foiz) ko'paydi.

Xorijdan jalb qilingan davlat qarzi qoldig'ining choraklik o'sish sur'atlarida sezilarli pasayish kuzatildi. Jumladan, I chorakda ko'rsatkich 5,7 foizga, II chorakda 3 foizga o'sgan bo'lsa, III chorakda o'sish 1,2 foizni tashkil etdi. 2025-yil 1-oktyabr holatiga ushbu mablag'lar qoldig'i 37,4 mlrd dollarni³ tashkil qildi.

Xo'jalik subyektlari va banklar tomonidan norezidentlardan jalb qilingan korporativ kredit va qarzar qoldig'i 38 mlrd dollarga teng bo'ldi.

Ma'lumot uchun: Norezidentlardan jalb qilingan korporativ qarzar mablag'lari tarkibida xususiy sektor, jumladan tadbirkorlik subyektlari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, aylanma mablag'larni to'ldirish, biznes faoliyatini kengaytirish va boshqa maqsadlarda davlat kafolatisiz jalb etilgan kredit va qarzar aks ettiriladi. Shu o'rinda, XVJ hamda xalqaro reyting agentliklari bayonotlarida O'zbekistonning tashqi qarzar yuki o'rtacha darajada ekanligi (asosan imtiyozli shartlarda olingan) e'tirof etilgan.

2026-YIL UCHUN KUTILMALAR

O'zbekiston Respublikasi to'lov balansining 2026-yil uchun dastlabki prognoz ko'rsatkichlari shakllantirildi. Bunda joriy va keyingi yillarda mamlakatimiz va uning asosiy savdo hamkorlaridagi iqtisodiy faollik darajasi, xalqaro moliya va tovar-xomashyo bozorlari konyunkturasi, mehnat va kapital migratsiyasi, shuningdek tashqi savdo va logistika sohalaridagi o'zgarishlar dinamikasi bo'yicha ekspertlarning kutilmalari va baholashlari inobatga olindi⁴.

O'zbekistonning eksport tovarlariga tashqi yalpi talab asosiy savdo hamkor mamlakatlardagi iqtisodiy faollik darajasi, xalqaro savdo siyosatidagi vaziyat, shu bilan birga jahon iqtisodiyotidagi mavjud noaniqliklarning saqlanib qolishiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Joriy yilning oktyabr oyidagi Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan jahon mamlakatlari, shu jumladan O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha prognozlar qayta ko'rib chiqilgan.

³ XVJning TBQ 6-son qo'llanmasiga muvofiq qarzar instrumentlari bo'yicha qoldiq hisoblangan, lekin to'lanmagan foizlarni ham o'z ichiga oladi.

⁴ 2026-yil davomida ichki va tashqi omillarning rivojlanishi hamda iqtisodiy kutilmalarning o'zgarishidan kelib chiqib, prognoz ko'rsatkichlar qayta ko'rib chiqib boriladi.

Jumladan, Xalqaro valyuta jamg'armasiga ko'ra, 2026-yilda Xitoy iqtisodiyoti 4,2 foizga (2025-y. 4,8%), Rossiya 1 foizga (2025-y. 0,6%), Turkiya 3,7 foizga (2025-y. 3,5%) va Qozog'iston 4,8 foizga (2025-y. 5,9%) o'sishi mumkin⁵.

O'zbekistonning asosiy eksport xomashyo mahsulotlarining jahon narxlari bo'yicha ijobiy kutilmalar saqlanib qolmoqda. Xususan, so'nggi bir yil davomida xalqaro savdo siyosatidagi o'zgarishlar, geosiyosiy vaziyat va global moliyaviy sharoitlar bilan bog'liq noaniqliklar fonida 1 tr. unsiya oltinning narxi 60 foizgacha o'sib, 4 000 dollardan yuqori shakllandi. Ushbu tendensiya keyingi yilda ham saqlanib qolishi prognoz qilinmoqda⁶.

Kumush va mis narxlarining joriy yilda kuzatilgan o'sish trendi 2026-yil davomida ham saqlanib qolishi bo'yicha kutilmalar mavjud⁷. 2025-yilning o'n bir oyi yakunlariga ko'ra, ushbu metallar narxi yil boshiga nisbatan mos ravishda 64 foiz va 21 foizga o'sdi.

2026-yilda turizm, transport va logistika hamda kommunikatsiya, kompyuter va axborot texnologiyalari (IT) sohasi xizmatlar eksportining asosiy drayverlari sifatida saqlanib qolishi kutilmoqda. Ushbu sohalarda islohotlarning izchil davom ettirilishi norezidentlarga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, O'zbekistonning 2026-yilda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi kutilmoqda. Bu esa mahalliy tovarlarning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish hamda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilgan omillar ta'sirida, to'lov balansi bo'yicha dastlabki prognozlarga ko'ra, 2026-yilda **jami eksport** hajmi o'tgan yilga nisbatan 14-16 foizga oshishi mumkin.

Kelgusi yilda ham yuqori investitsiyaviy faollik va ichki iste'mol talabi import dinamikasini belgilovchi omillardan bo'ladi. O'zbekiston iqtisodiyoti real hisobda 5,5-6,5 foizga va yakuniy iste'mol xarajatlari 6-6,5 foizga o'sishi kutilmoqda⁸.

Ushbu jarayonlar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha investitsiya dasturlari doirasida mashina, uskuna va mexanizmlar, transport vositalari, oziq-ovqat, kimyo va metallurgiya sanoati mahsulotlari hamda boshqa xomashyolar importi o'sishida namoyon bo'lishi mumkin.

Mazkur omillar ta'sirida 2026-yilda **jami import** hajmi 2025-yilga nisbatan 12-14 foizga ko'payishi prognoz qilinmoqda.

⁵ Jahon iqtisodiy istiqbollari, XVJ, 2025-y. oktyabr

⁶ Oltin bozori sharhi, Jahon oltin uyushmasi, 2025-y. dekabr

⁷ Xomashyo bozorlari istiqbollari, Jahon banki, 2025-y. oktyabr.

⁸ Pul-kredit siyosatining 2026-yil va 2027-2028 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki nashri, 2025-yil.

2026-yilda aksariyat mehnat muhojirlarni qabul qiluvchi mamlakatlarda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari kutilmalarga nisbatan pastroq shakllanishiga qaramasdan, ishchi kuchiga talab va ish haqlarining yuqori darajada saqlanib qolishi mehnat muhojirlari daromadlarining oshishini rag'batlantirishi mumkin.

Shuningdek, hukumatlararo kelishuvlar doirasida mehnat muhojirlarini rivojlangan mamlakatlarga yuborish borasida tizimli ishlar amalga oshirilishi davom etishini inobatga olib, O'zbekistonga **xalqaro pul o'tkazmalari** hajmi 12-15 foizga oshishi kutilmoqda.

2024-yilning ikkinchi yarmidan boshlab global moliyaviy sharoitlarni bosqichma-bosqich yumshatish jarayonlari ortidan xalqaro moliya bozorlarida foiz stavkalari pasayishi kuzatildi (*SOFR stavkasi o'rtacha 5,3 foizdan 4 foizgacha tushgan*). Kelgusi yilda ham stavkalarning nisbatan past darajada shakllanishi norezidentlardan suzuvchan foiz stavkalari asosida jalb qilingan kredit va qarzlarga xizmat ko'rsatish, shuningdek yangi qarzdorliklar jalb qilish bo'yicha xarajatlarning kamayishiga xizmat qilishi mumkin.

2026-yilda savdo balansi manfiy saldosi qisman qoplab beruvchi **birlamchi** va **ikkilamchi daromadlar** komponentining ijobiy saldosi o'tgan yilga nisbatan 12-14 foizga oshishi taxmin qilinmoqda.

Yuqoridagi omillar ta'sirida, **2026-yil** yakuni bilan to'lov balansi **joriy operatsiyalari hisobining** manfiy saldosi YalMning 3-4 foizi atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda (*2025-yil uchun kutilma 3,5-4 foiz*).

Markaziy bank O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei va tashqi qarz ko'rsatkichlarini shakllantirish doirasidagi hamkorlik uchun tegishli vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

1-ilova. 2023-2025-yillarning 9 oyi uchun to'lov balansi
(tahliliy ko'rinishi)

(mln dollar)

Ko'rsatkichlar	2023-yil 9 oyi	2024-yil 9 oyi	2025-yil 9 oyi
A. Joriy operatsiyalar hisobi saldosi	-4 157,4	-3 099,4	-207,3
Tovarlar, kredit (eksport)	14 270,0	14 881,5	19 623,2
Tovarlar, debet (import)	23 938,1	24 272,8	27 128,3
Xizmatlar, kredit (eksport)	4 046,2	4 762,6	6 458,0
Xizmatlar, debet (import)	5 852,2	7 526,3	9 574,7
<i>Savdo balansi saldosi</i>	<i>-11 474,1</i>	<i>-12 154,9</i>	<i>-10 621,8</i>
Birlamchi daromadlar, kredit	4 061,0	4 351,8	5 034,7
Birlamchi daromadlar, debet	3 032,6	3 268,6	4 409,8
<i>Savdo balansi va birlamchi daromadlar saldosi</i>	<i>-10 445,8</i>	<i>-11 071,8</i>	<i>-9 996,9</i>
Ikkilamchi daromadlar, kredit	6 957,2	8 738,7	10 859,4
Ikkilamchi daromadlar, debet	668,8	766,4	1 069,8
B. Kapital operatsiyalari hisobi	7,9	6,0	10,6
Kapital operatsiyalar hisobi, kredit	7,9	6,0	10,6
Kapital operatsiyalar hisobi, debet	0,0	0,0	0,0
<i>Joriy operatsiyalar hisobi va kapital operatsiyalar hisobi saldosi</i>	<i>-4 149,4</i>	<i>-3 093,4</i>	<i>-196,7</i>
C. Moliyaviy hisob (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari)	-2 252,7	-3 320,0	-2 539,3
To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, aktivlar	11,1	14,0	146,8
To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, majburiyatlar	1 757,7	1 672,8	2 919,3
Portfel investitsiyalar, aktivlar	0,2	0,3	0,1
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	0,2	0,3	0,1
Qarz instrumentlari	0,0	0,0	0,0
Portfel investitsiyalar, majburiyatlar	131,1	1 703,5	3 806,2
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	16,0	-7,1	6,8
Qarz instrumentlari	115,1	1 710,7	3 799,4
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari)	1,6	0,0	0,0
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar, aktivlar	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar, majburiyatlar	-1,6	0,0	0,0

Ko'rsatkichlar	2023-yil 9 oyi	2024-yil 9 oyi	2025-yil 9 oyi
Boshqa investitsiyalar, aktivlar	3 785,3	4 482,4	7 814,0
Kapitalda ishtirok etishning boshqa instrumentlari	0,4	5,0	10,0
Qarz instrumentlari	3 784,8	4 477,4	7 804,0
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Depozit tashkilotlari, Markaziy bank bundan mustasno	-781,9	857,8	1 786,9
Davlat boshqaruv sektori	-13,9	-9,8	-13,7
Boshqa sektorlar	4 580,7	3 629,4	6 030,9
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo'jaliklari va UXXKNT	4 580,7	3 629,4	6 030,9
Boshqa investitsiyalar, majburiyatlar	4 162,1	4 440,4	3 774,7
Kapitalda ishtirok etishning boshqa instrumentlari	0,0	0,0	0,0
MQH taqsimlanishi	2,2	-0,7	-0,7
Qarz instrumentlari	4 159,9	4 441,0	3 775,5
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Depozit tashkilotlari, Markaziy bank bundan mustasno	803,9	188,1	1 544,6
Davlat boshqaruv sektori	1 113,0	2 389,1	1 339,5
Boshqa sektorlar	2 243,0	1 863,8	891,4
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	21,1	7,9	-9,3
Nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo'jaliklari va UXXKNT	2 221,9	1 855,9	900,6
D. Sof xatolar va yo'qotishlar	-2 765,6	-811,8	-759,1
E. Umumiy balans	4 662,3	585,3	-1 583,5
F. Zaxiralar va ular bilan bog'liq moddalar	-4 662,3	-585,3	1 583,5
Zaxira aktivlari	-4 692,6	-677,5	1 522,1
XVJdan sof qarz jalb qilish (XVJdagi zaxira pozitsiyasidan tashqari)	-30,4	-92,3	-61,4
Boshqa moliyalashtirish	0,0	0,0	0,0

Ushbu statistik hisobot to'lov balansini tuzish qo'llanmasining (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) 6-nashrida keltirilgan tahliliy ko'rinishni aks ettiradi.

**2-ilova. 2023-2024 yillar va 2025-yilning 9 oyi yakuniga ko'ra
xalqaro investitsiyaviy mavqe**
(tahliliy ko'rinishi)

(mln dollar)

Ko'rsatkichlar	01.01.2024y.	01.01.2025y.	01.10.2025y.
Aktivlar	84 883,5	96 624,7	118 512,4
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	209,9	243,8	395,6
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	37,1	69,0	220,8
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	37,1	69,0	220,8
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	0,0	0,0	0,0
Qarz instrumentlari	172,8	174,8	174,8
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	2,5	2,6	2,6
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	170,4	172,2	172,2
Portfel investitsiyalar	2,9	3,1	3,4
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	2,9	3,1	3,4
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	1,1	1,1	1,1
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	1,8	2,0	2,3
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Qarz qimmatli qog'ozlari	0,0	0,0	0,0
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	0,0	0,0	0,0
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	0,0	0,0	0,0
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0

Ko'rsatkichlar	01.01.2024y.	01.01.2025y.	01.10.2025y.
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (oltin valyuta zaxiralaridan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarning opsiyalari	0,0	0,0	0,0
Boshqa investitsiyalar	50 106,0	55 196,2	63 118,8
Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari	2,0	7,0	17,0
Qarz instrumentlari	50 104,0	55 189,2	63 101,8
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	3 242,7	4 061,9	5 958,1
Davlat boshqaruvi sektori	4,8	2,8	9,7
Boshqa sektorlar	46 856,5	51 124,5	57 134,0
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Zaxira aktivlari	34 564,6	41 181,6	54 994,5
Monetar oltin	24 632,2	32 036,7	44 236,4
Qarz olishlarning maxsus huquqlari	563,0	547,3	575,4
XVJdagi zaxira pozitsiyasi	0,0	0,0	0,0
Boshqa zaxira aktivlari	9 369,5	8 597,7	10 182,7
Majburiyatlar	72 710,0	83 367,3	97 071,9
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	14 866,9	16 941,3	20 576,9
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	11 356,8	12 160,0	14 576,8
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	11 356,8	12 160,0	14 576,8
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	0,0	0,0	0,0
Qarz instrumentlari	3 510,1	4 781,2	6 000,1
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	3 217,4	4 329,2	5 235,9
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	292,7	452,0	764,2

Ko'rsatkichlar	01.01.2024y.	01.01.2025y.	01.10.2025y.
Portfel investitsiyalar	5 295,5	8 428,9	13 157,2
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	123,7	117,2	136,4
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	57,5	75,1	84,5
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	66,3	42,1	51,9
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	1,7	1,7	3,4
Qarz qimmatli qog'ozlari	5 171,8	8 311,7	13 020,7
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	1 027,7	2 340,4	2 962,4
Davlat boshqaruvi sektori	3 284,9	4 049,9	6 201,1
Boshqa sektorlar	859,2	1 921,4	3 857,3
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy moliya instrumentlar (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarning opsionlari	0,0	0,0	0,0
Boshqa investitsiyalar	52 547,6	57 997,1	63 337,9
Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari	0,0	0,0	0,0
Qarz olishlarning maxsus huquqlari (majburiyatlarni sof qabul qilish)	1 068,8	1 037,4	1 089,8
Boshqa qarz instrumentlari	51 478,9	56 959,7	62 248,1
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	11 215,2	11 680,7	13 771,9
Davlat boshqaruvi sektori	21 353,4	25 330,8	27 111,6
Boshqa sektorlar	18 910,3	19 948,2	21 364,6
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	114,1	119,3	121,1
Sof xalqaro investitsiyaviy mavqe	12 173,5	13 257,5	21 440,5